


MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL

IYUL/7-SON, II-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ФИЛИАЛ В г. ТАШКЕНТЕ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyul.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

OILAVIY KORXONALAR FAOLIYATINI BOSHQARISHNING TASHKILY MEXANIZMINI TIZIMLI TAHLILI	10
Sultonov Bobirmirzo Mavlonjon o'g'li	
NEW ZEALAND'S EXPERIENCE IN TRANSITIONING TO INFLATION TARGETING	21
Duskobilov Umidjon Sharofiddinovich	
ВЛИЯНИЕ ПАРАМЕТРОВ ПРОЦЕССА ТЕКУЧЕСТИ НА СВОЙСТВА ГРАНУЛИРОВАННЫХ МАТЕРИАЛОВ НА ОСНОВЕ УГОЛЬНЫХ ОТХОДОВ В РАМКАХ ЦИРКУЛЯРНОЙ ЭКОНОМИКИ	28
Абдуганиев Азизбек, Кулдашева Азиза	
BUDJET TUSHUMLARINI OSHIRISHDA BOJXONA TO'LOVLARIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI EKONOMETRIK BAHOLASH VA PROGNOZLASH	33
Fayzullayev Farrux Sharofovich	
O'ZBEKISTON KORXONALARIDA MOLYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIGA (MHXS) O'TISHDA UCHRAYDIGAN ASOSIY MUAMMOLAR: SO'ROVNOMA NATIJALARI ASOSIDA TAHLIL	41
Safarova Gulbahor Nusratovna	
ТЕМИР YO'L TRANSPORTI INNOVATSION EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISH MODELI	45
Muradov Bahrom, Masharipov Ma'sud	
TIJORAT BANKLARIDA QARZ OLUVCHILARNING TO'LOVGA LAYOQATLILIGINI BAHOLASHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	49
Soibov Jamshid Raxmatqulovovich	
O'ZBEKISTONDA CHEGARALARARO TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA BOJXONA XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI	56
Ergashev Qobiljon Ernazarovich	
TIJORAT BANKLARIDA ICHKI AUDITNING IQTISODIY MOHIYATI VA FUNKSIONAL EVOLYUTSIYASI: XALQARO STANDARTLARNING YANGI AVLADI ASOSIDAGI YONDASHUV	62
Narziyev Xayotjon Azamatovich	
MOLYAVIY INVESTITSİYALAR AUDITINI O'TKAZISH METODIKASINI VA AUDIT RISKLARINI BAHOLASHNI TAKOMILLASHTIRISH	69
Jumamurodov To'libay Yeldashbayevich	
MOLYAVIY HISOBOT IZOHLARIDA UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR QADRSIZLANISHI YUZASIDAN OCHIB BERILADIGAN AXBOROTLAR TARKIBINI KENGAYTIRISH ORQALI HISOBOT SHAFFOFLIGINI OSHIRISH.	75
Fayzullayev Begzod Baxtiyor o'g'li	
XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASINI O'ZBEKISTON DAVLAT SEKTORI ICHKI AUDITIGA MOSLASHTIRISHNING KONSEPTUAL MODEL VA MUHIMLIK DARAJALARINI ME'YORIY-HUQUQIY BAZAGA JORIY ETISH	82
Ismatillayev Baypo'lat Xushvaqtovich	
O'ZBEKISTONDA TOVAR YETKAZIB BERISH ZANJIRI ISHTIROKCHILARI FAOLIYATI VA BOJXONA NAZORATI TIZIMINING ZAMONAVIY HOLATI TAHLILI	90
Ergashev Qobiljon, Kilichov Nazar	
DAVLAT XARIDLARI BO'YICHA ICHKI AUDITNING XATARGA YO'NALTIRILGAN METODOLOGIYASI	96
Rajabov Shuxrat Ismayilovich	
TIJORAT BANKLARIDA ICHKI AUDIT XIZMATI TUSHUNCHASINING IQTISODIY MAZMUNI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	101
Ismailov Azizbek Madaminovich	
YENGIL SANOAT KORXONALARIDA XATARGA YO'NALTIRILGAN ICHKI AUDIT METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH	109
Tojiyeva Shahlo Mahmatmurodovna	



YENGIL SANOAT KORXONALARIDA XATARGA YO'NALTIRILGAN ICHKI AUDIT METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Tojiyeva Shahlo Mahmatmurodovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Maqolada yengil sanoat korxonalari uchun xatarga yo'naltirilgan ichki audit metodikasini takomillashtirish masalasi tadqiq etilgan. Olti bosqichli siklik metodika taklif etilib, uning tarkibida tovar-moddiy zaxiralar va tannarx auditining tarmoqqa xos protseduralari — material balans usuli, bosqichli kalkulyatsiya audit, chiqitlar nazorati hamda kalit xatar indikatorlari tizimi asoslangan. Metodikaning ikki darajali, modulli tuzilishi uni korxona xususiyatlariga moslashtirish imkonini beradi. Natijalar ichki audit xizmatlari faoliyatini tashkil etish va audit dasturlarini ishlab chiqishda qo'llanilishi mumkin.

Kalit so'zlar: ichki audit metodikasi, xatarga yo'naltirilgan ichki audit, yengil sanoat, tovar-moddiy zaxiralar, tannarx audit, kalit xatar indikatorlari, audit dasturi.

Abstract. This article examines the improvement of a risk-based internal audit methodology for light industry enterprises. A six-stage cyclical methodology is proposed, incorporating industry-specific procedures for inventory and cost auditing, including the material balance method, process costing audit, waste control, and a key risk indicator system. The two-level modular structure of the methodology enables its adaptation to the specific characteristics of enterprises. The results can be applied in organising the activities of internal audit functions and developing audit programmes.

Keywords: internal audit methodology, risk-based internal audit, light industry, inventories, cost audit, key risk indicators, audit programme.

АННОТАЦИЯ. В статье исследованы вопросы совершенствования методики риск-ориентированного внутреннего аудита для предприятий лёгкой промышленности. Предложена шестиступенчатая циклическая методика, включающая отраслевые процедуры аудита товарно-материальных запасов и себестоимости: метод материального баланса, аудит поэтапной калькуляции, контроль отходов и систему ключевых индикаторов риска. Двухуровневая модульная структура методики позволяет адаптировать её к особенностям конкретного предприятия. Результаты исследования могут применяться при организации деятельности служб внутреннего аудита и разработке аудиторских программ.

Ключевые слова: методика внутреннего аудита, риск-ориентированный внутренний аудит, лёгкая промышленность, товарно-материальные запасы, аудит себестоимости, ключевые индикаторы риска, аудиторская программа.

KIRISH

Yengil sanoat O'zbekiston iqtisodiyotining ustuvor tarmoqlaridan biri bo'lib, uning jadal o'sishi korxonalar ichki nazorat tizimiga bosimni oshirmoqda. Tarmoqning texnologik xususiyatlari — tannarxda material xarajatlarining ustunligi, ko'p bosqichli ishlab chiqarish zanjiri, chiqit va nobudgarchilikning tabiiy mavjudligi — tovar-moddiy zaxiralar va tannarx shakllanishi atrofida o'ziga xos xatarlar majmuasini yuzaga keltiradi. Bunday sharoitda ichki auditning an'anaviy, tekshiruv-revizion metodikasini qo'llash ayrim cheklovlarga ega bo'lib, u xatarlarning ustuvorligini to'liq hisobga olish, audit resurslarini optimal taqsimlash va profilaktik yondashuvni kuchaytirish imkoniyatlarini talab etadi.

Muammoning metodik jihati shundaki, amaldagi milliy me'yoriy baza — ichki audit milliy standartlari va tadbirlarni o'tkazish qo'llanmasi — asosan davlat sektori uchun mo'ljallangan bo'lib, tijorat korxonalarida, xususan, yengil sanoatda xatarga yo'naltirilgan ichki auditni tashkil etishning tarmoq xususiyatlarini hisobga oluvchi yaxlit metodikasi ishlab chiqilmagan. Xorijiy adabiyotda xatarga asoslangan yondashuv vositalari keng yoritilgan bo'lsa-da, ular tarmoqqa bog'lanmagan umumiy ko'rinishda taqdim etiladi va milliy hisob-me'yoriy muhitga moslashtirishni talab qiladi.

Tadqiqotning maqsadi — yengil sanoat korxonalari uchun xatarga yo'naltirilgan ichki audit metodikasini ishlab chiqish va asoslashdan iborat. Vazifalar: metodikaning umumiy arxitekturasini (bosqichlar tarkibi va ketma-

ketligini) asoslash; tovar-moddiy zaxiralar va tannarx auditining tarmoqqa xos protseduralarini ishlab chiqish; analitik vositalar, jumladan, kalit xatar indikatorlari tizimini shakllantirish; metodikaning moslashuvchanligini ta'minlovchi tuzilmaviy yechimni taklif etish. Maqola tuzilishi jurnal talablariga muvofiq adabiyotlar sharhi, metodologiya, tahlil va natijalar muhokamasi hamda xulosalardan iborat.

Tadqiqot obyekti — yengil sanoat korxonalarida ichki audit faoliyati; predmeti — ushbu faoliyatni xatarga yo'naltirilgan asosda tashkil etishning metodik ta'minoti, ya'ni bosqichlar, protseduralar va analitik vositalar majmuasidir. Metodika tushunchasi bunda keng ma'noda — audit faoliyatini «nima», «qanday tartibda» va «qaysi vositalar bilan» bajarilishini belgilovchi me'yorlashtirilgan tavsiflar tizimi sifatida qo'llaniladi. Aynan shunday tizimning mavjudligi ichki audit sifatining korxonadan korxonaga barqarorligini ta'minlaydi va uni alohida auditorning shaxsiy tajribasiga bog'liqlikdan xalos qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ichki audit metodikasining umumiy asoslari fundamental adabiyotda batafsil yoritilgan: L. Soyer audit jarayonining bosqichlarini va ish hujjatlari tizimini tavsiflaydi (Sawyer va boshq., 2003); K. Pikett audit dasturlarini tuzish va xatarlarga asoslangan rejalashtirish amaliyotini ochib beradi (Pickett, 2010); V. Brink va R. Moeller metodikani korporativ boshqaruv kontekstiga joylashtiradi (Moeller, 2016). Xatarga asoslangan auditning maxsus metodik talqini P. Griffiths ishida berilgan bo'lib, unda audit yuklamasini xatar bahosiga mutanosib taqsimlash algoritmi taklif etiladi (Griffiths, 2005). Ta'limiy yo'nalishda K. Reding va hammualliflar ishonch berish topshiriqlarining bosqichma-bosqich metodikasini bayon etadi (Reding va boshq., 2013).

Metodikaning analitik vositalari bo'yicha Ichki auditorlar institutining texnologik qo'llanmasi ma'lumotlarni tahlil qilish texnikalarini tizimlashtiradi (The IIA, 2011), M. Vasarheyi va hammualliflar esa uzluksiz monitoring tamoyillarini asoslaydi (Vasarhelyi va boshq., 2004). Xatarlarni baholash metodologiyasining konseptual asosi sifatida COSOning korxona xatarlarini boshqarish modeli xizmat qiladi (COSO, 2017), amaldagi kasbiy talablar esa Global ichki audit standartlarida mustahkamlangan (The IIA, 2024). Xarajatlar hisobi va kalkulyatsiya masalalari boshqaruv hisobi adabiyotida, jumladan, K. Druri ishida chuqur yoritilgan (Druri, 2012).

Milliy tadqiqotlarda metodik masalalar qisman yoritilgan: K. Axmadjonov ichki audit metodologiyasini modernizatsiya kontekstida takomillashtirish yo'nalishlarini asoslagan (Axmedjanov, 2016); R. Raxmonov tovar-moddiy zaxiralar hisobi va auditini takomillashtirish masalalarini tadqiq etgan (Raxmonov, 2010); Sh. Ilhamov ichki audit samaradorligini baholash mezonlarini taklif etgan (Ilhamov, 2019); N. Xojimuratov audit metodologiyasining rivojlanish yo'nalishlarini ko'rsatgan (Xajimuratov, 2021). Me'yoriy darajada ichki audit milliy standartlari (O'zR Moliya vazirligi, 2022) va ichki audit tadbirlarini o'tkazish qo'llanmasi (O'zR Moliya vazirligi, 2022a) metodik talablarni belgilaydi.

Sharh xulosasi: adabiyotda xatarga yo'naltirilgan yondashuvning ayrim elementlari — rejalashtirish, tahliliy protseduralar, xatarlarni baholash — alohida-alohida yoritilgan, biroq ular yengil sanoat tarmog'ining xususiyatlariga bog'langan yaxlit, bosqichma-bosqich metodika ko'rinishida umumlashtirilmagan. Tovar-moddiy zaxiralar va tannarx auditining tarmoqqa xos protseduralari — material balansi, bosqichli kalkulyatsiya tekshiruvi, chiqitlar nazorati — milliy metodik hujjatlarda tizimli aks etmagan. Ayni shu bo'shliq mazkur tadqiqotning predmetini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot amaliy-uslubiy xarakterga ega. Metodik asos sifatida tizimli yondashuv (metodikani o'zaro bog'liq bosqichlar yaxlitligi sifatida qurish), modellashtirish (metodika arxitekturasini va audit dasturini loyihalash), qiyosiy tahlil (xalqaro standartlar talablari bilan milliy me'yoriy bazani taqqoslash), guruhlash va tasniflash (tarmoq xatarlari va protseduralarini tartiblash) usullari qo'llanildi. Axborot manbalari — Ichki auditorlar instituti (The Institute of Internal Auditors) va COSO hujjatlari, milliy me'yoriy-huquqiy hujjatlar hamda sohaga oid ilmiy adabiyot. Metodikaning ishonchliligi uning xalqaro standartlar talablariga muvofiqligi va mantiqiy yaxlitligi orqali, amaliy tatbiq etiluvchanligi esa har bir bosqich uchun aniq protseduralar va hujjat shakllarining belgilanishi orqali ta'minlanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Taklif etilayotgan metodikaning umumiy arxitekturasini olti bosqichli siklik tuzilishga ega: tarmoq xatarlarini identifikatsiyalash; xatarlarni baholash va matritsa tuzish; xatarga asoslangan rejalashtirish; tovar-moddiy zaxiralar va tannarx auditini o'tkazish; natijalarni rasmiylashtirish; monitoring va qayta baholash. Siklik shakl metodikaning uzluksizligini ta'minlaydi: yakuniy bosqich natijalari keyingi sikl uchun boshlang'ich ma'lumot



bo'lad, xatarlar manzarasi esa har bir siklda yangilanadi. Metodikaning umumiy ko'rinishi 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. Xatarga yo'naltirilgan ichki audit metodikasining siklik tuzilishi

Manba: muallif ishlanmasi.

Birinchi va ikkinchi bosqichlar metodikaning xatarlarni baholash bazasini shakllantiradi. Tarmoq xatarlari ishlab chiqarish zanjiri mantig'ida to'rt guruhga tasniflanadi: ta'minot xatarlari (xomashyo sifati, narx tebranishi, yetkazib berish uzilishlari), ishlab chiqarish-texnologik xatarlar (me'yordan ortiq sarf, chiqit va nobudgarchilik, peredellararo yo'qotishlar), moliyaviy-hisob xatarlari (zaxiralarni noto'g'ri baholash, kalkulyatsiya xatolari) hamda sotuv-eksport xatarlari. Baholash ehtimollik-ta'sir (5×5) matritsasi orqali amalga oshirilib, har bir xatar ball asosida kritik, yuqori, o'rtacha yoki past darajaga kiritiladi. Matritsa audit e'tiborini obyektiv taqsimlashning asosidir.

Matritsani tuzishda baholar manbai masalasi alohida ahamiyatga ega. Xatarga yo'naltirilgan ichki audit korxonaning xatarlarni boshqarish tizimi shakllantirgan baholardan foydalanadi, biroq ularga tanqidiy yondashadi: audit o'z mustaqil bahosini ham shakllantirib, ikkala bahoni taqqoslaydi — jiddiy tafovut yoki boshqaruv bahosining yetarlicha asoslanmagan ijobiy baholash o'z-o'zidan audit e'tiborini talab qiluvchi holatdir. Baholashga ishlab chiqarish, ta'minot, hisob va sotuv bo'linmalari vakillarining jalb etilishi baholarning har tomonlamaligini ta'minlaydi. Matritsa yiliga kamida bir marta, jiddiy o'zgarishlarda esa darhol yangilanadi — bu xatarga yo'naltirilgan yondashuvning dinamik tabiatidan kelib chiqadi.

Uchinchi bosqichda audit rejasi xatarlar matritsasidan kelib chiqib tuziladi: kritik va yuqori xatarli sohalar yillik rejaga majburiy kiritilib, chuqur tekshiruv obyektiga aylanadi; o'rtacha xatarlilar aylanma tartibda, past xatarlilar esa tanlanma monitoring rejimida qamrab olinadi. Bunday taqsimot cheklangan audit resurslarini eng katta yo'qotish ehtimoli bo'lgan nuqtalarga yo'naltiradi. To'rtinchi bosqich — metodikaning mazmuniy yadrosi — tovar-moddiy zaxiralar va tannarx auditini tarmoqqa xos protseduralar asosida o'tkazishdir; uning tarkibi namunaviy audit dasturi ko'rinishida tizimlashtirilgan (1-jadval).

Rejalashtirish bosqichining hujjatlashtirilishi ham metodikada aniq belgilangan. Yillik reja xatarlar matritsasiga havola bilan tuzilib, har bir topshiriq uchun asos bo'lgan xatar, maqsad, ko'lam va muddat ko'rsatiladi. Har bir topshiriq bo'yicha alohida audit dasturi ishlab chiqiladi — unda tekshiriladigan yo'nalishlar, protseduralar, tanlanma hajmi va mas'ullar belgilanadi. Namunaviy audit dasturi bunda namunaviy asos vazifasini bajaradi: auditor uni muayyan topshiriq xatarlariga moslab toraytiradi yoki kengaytiradi. Shu tariqa rejalashtirish hujjatlari xatar bahosi bilan audit harakatlari o'rtasidagi izchil bog'lanishni ta'minlaydi va tekshiruvning asosililigini hujjatli tasdiqlaydi.

1-jadval

Tovar-moddiy zaxiralar (TMZ) va tannarx auditini namunaviy dasturining asosiy yo'nalishlari (fragment)

Yo'nalish	Asosiy protseduralar	Qoplanadigan xatar
Material balans	Kirim-sarf-qoldiq balansini nomenklatura kesimida tuzish va yuritish hisobi bilan solishtirish	Hisobga olinmagan yo'qotish, ortiqcha hisobdan chiqarish
Sarf me'yorlari	Haqiqiy sarfni me'yor bilan taqqoslash, og'ishlar sababini tahlil qilish	Me'yordan ortiq sarf, me'yorlarning eskirganligi

Yo'nalish	Asosiy protseduralar	Qoplanadigan xatar
Chiqitlar nazorati	Chiqit hajmi, sinflanishi va harakatini tekshirish, qayta ishlash/sotish hisobini baholash	Chiqitlar hisobini noto'g'ri yuritish orqali mahsulot hajmini buzib ko'rsatish xavfi
Bosqichli kalkulyatsiya	Peredellararo xarajat taqsimotini qayta hisoblash, tugallanmagan ishlab chiqarishni baholash	Tannarxni buzib ko'rsatish, davr xarajatlarni noto'g'ri taqsimlash
Zaxiralarni baholash	Sekin aylanuvchi va turib qolgan zaxiralarni aniqlash, qadrsizlanishni baholash	Aktivlar qiymatini asossiz ravishda yuqori aks ettirish
Inventarizatsiya	Tanlanma qatnashuv, natijalarni hisob bilan solishtirish	Kamomad, ortiqcha, soxta qoldiq

Manba: (Pickett, 2010; Druri, 2012; O'zR Moliya vazirligi, 2022a) talablari asosida muallif ishlanmasi.

Dasturning o'ziga xosligi uchta protsedurada yaqqol namoyon bo'ladi. Material balansi usuli yengil sanoatda nazoratning tayanch vositasidir: xomashyo kirimi, ishlab chiqarishga sarf, chiqit va qoldiq o'rtasidagi miqdoriy muvozanat nomenklatura kesimida tekshiriladi — balansdagi tafovutlar hisobga olinmagan yo'qotishlar yoki nazorat jarayonlarini takomillashtirish zarurligini ko'rsatuvchi indikator sifatida baholanishi mumkin. Bosqichli kalkulyatsiya auditi ko'p bosqichli (peredel) ishlab chiqarishda xarajatlarning bosqichlararo taqsimotini qayta hisoblashni nazarda tutadi: ushbu bosqichda tannarx ko'rsatkichlarining noto'g'ri shakllanishi xavfi yuqori bo'lishi mumkin. Chiqitlar nazorati esa tarmoqda tabiiy chiqitning mavjudligidan foydalanib, mahsulotni yashirish xatariga qarshi qaratilgan — chiqit me'yori, sinflanishi va keyingi harakati auditning doimiy obyektidir.

Namunaviy audit dasturi protseduralarining hujjatlashtirilishi dalillar zanjirini ta'minlaydi. Har bir protsedura bo'yicha ish hujjatida manba ma'lumotlari, bajarilgan hisob-kitob, aniqlangan og'ishlar va auditor xulosasi qayd etiladi; og'ishlar keyinchalik hisobotdagi kuzatuvlarga aylanadi. Material balansi bo'yicha ish hujjati, masalan, nomenklatura kesimidagi balans jadvalini va tafovutlar izohini o'z ichiga oladi. Bunday hujjatlashtirish ichki audit xulosalarining tekshiriluvchanligini — har bir xulosadan uning daliligacha izchil iz mavjudligini ta'minlaydi va sifat nazorati hamda tashqi baholash uchun asos yaratadi.

Tahliliy protseduralarning dastur bilan aloqasi ikki yo'nalishlidir: bir tomondan, rejalashtirish bosqichidagi dastlabki tahlil qaysi protseduralarni chuqurlashtirish kerakligini ko'rsatadi; ikkinchi tomondan, tekshiruv davomidagi tahlil natijalari kalit xatar indikatorlari bazasini boyitadi. Masalan, zaxiralar aylanishi tahlili muayyan nomenklatura guruhida sekinlashuvni ko'rsatsa, dasturga ushbu guruh bo'yicha chuqurlashtirilgan protseduralar kiritiladi; tekshiruv yakunida esa aniqlangan holat indikator chegarasini aniqlashtirishga xizmat qiladi. Shu tariqa tahliliy protseduralar, namunaviy audit dasturi va kalit xatar indikatorlari o'zaro bog'langan yaxlit analitik konturni tashkil etadi.

Metodikaning analitik vositalari tahliliy protseduralar va kalit xatar indikatorlari (KRI) tizimidan iborat. Tahliliy protseduralar — material sarfi dinamikasi, zaxiralar aylanishi, chiqit ulushi, tannarx tarkibining davrlararo va korxonalararo taqqoslovi — og'ishlarni aniqlab, chuqur tekshiruv nuqtalarini belgilaydi. KRI tizimi esa ushbu tahlilni doimiy monitoringga aylantiradi: har bir indikator uchun korxonaning tarixiy ma'lumotlari asosida baza qiymat va signal chegarasi belgilanadi; chegaradan oshish audit e'tiborini talab qiluvchi hodisa sifatida qayd etiladi. Asosiy indikatorlar tarkibi 2-jadvalda keltirilgan.

Kalit xatar indikatorlari tizimini joriy etish uch qadamda amalga oshiriladi. Avvalo, har bir indikator uchun baza qiymat korxonaning kamida uch yillik tarixiy ma'lumotlari asosida hisoblanadi; so'ngra signal chegarasi baza qiymatga yo'l qo'yiladigan og'ishni qo'shish orqali belgilanib, rahbariyat bilan kelishiladi — bu chegarani xatar ishtahasining miqdoriy ifodasiga aylantiradi; nihoyat, monitoring davriyligi indikator tabiatiga qarab o'rnatiladi: material sarfi ko'rsatkichlari oylik, zaxiralar aylanishi choraklik kuzatiladi. Kalit xatar indikatorlari shu tarzda bir martalik hisob-kitobdan doimiy ishlaydigan erta ogohlantirish tizimiga aylanadi.

2-jadval

Kalit xatar indikatorlari tizimining tarkibi

Indikator	Hisoblash tartibi	Signal chegarasi tamoyili
Materialdan foydalanish ko'effitsiyenti	Tayyor mahsulotdagi material / sarflangan material	Baza qiymatdan belgilangan foizga pasayish
Chiqit ulushi	Chiqit hajmi / sarflangan xom ashyo	Tarixiy o'rtachadan oshish
Me'yordan og'ish darajasi	(Haqiqiy – me'yoriy sarf) / me'yoriy sarf	Yo'l qo'yiladigan og'ish foizidan oshish
Zaxiralar aylanish davri	365 × o'rtacha zaxira / sotilgan mahsulot tannarxi	Me'yoriy aylanish muddatidan uzayish
Turib qolgan zaxira ulushi	Harakatsiz zaxira / jami zaxira	Belgilangan ulushdan oshish

Manba: (The IIA, 2011; COSO, 2017) tamoyillari asosida muallif ishlanmasi. Chegaralar korxonaning tarixiy ma'lumotlari asosida «baza qiymat + belgilangan og'ish» tamoyilida o'rnatiladi.



Beshinchi va oltinchi bosqichlar metodikaning natijalarni shakllantirish va teskari aloqa mexanizmini ta'minlovchi yakuniy qismini tashkil etadi. Natijalarni rasmiylashtirish hisobotning xatar tilida yozilishini nazarda tutadi: har bir kuzatuv aniqlangan xatar, uning potensial ta'siri va amalga oshiriladigan tavsiya bilan bog'lanadi; tavsiyalar ijrosi reyestr orqali kuzatiladi. Monitoring va qayta baholash bosqichida tavsiyalar ijrosi, KRI dinamikasi va yangi xatarlar tahlil qilinib, xatarlar matritsasi yangilanadi — shu tariqa sikl yopiladi va metodika uzluksiz takomillashtirish mexanizmini shakllantiradi.

Metodikaning moslashuvchanligini ikki darajali, modulli tuzilish ta'minlaydi. Birinchi — invariant daraja barcha korxonalar uchun umumiy bo'lgan bosqichlar ketma-ketligi, tasniflar va hujjat shakllarini o'z ichiga oladi. Ikkinchi — variativ daraja kichik tarmoq (to'qimachilik, tikuv, teri-poyabzal) va korxona ko'lamiga qarab tanlanadigan protsedura modullaridan iborat: masalan, bosqichli kalkulyatsiya moduli to'qimachilikda to'liq, tikuv korxonasida soddalashtirilgan holda qo'llaniladi. Bunday tuzilish metodikani yagona andozaga aylantirmasdan, tarmoq ichidagi xilma-xillikka moslashtiradi.

Modulli tuzilish korxona ko'lamiga moslashishni ham ta'minlaydi. Yirik korxonada metodika to'liq hajmda, shtatli ichki audit xizmati tomonidan qo'llaniladi. O'rta korxonada ayrim modullar — masalan, uzluksiz monitoring soddalashtirilgan ko'rinishda joriy etilib, asosiy e'tibor namunaviy audit dasturining asosiy audit protseduralariga qaratiladi. Kichik korxona yoki outsorsing sharoitida metodika tashqi ijrochi uchun texnik topshiriq vazifasini bajaradi: buyurtmachi xatarlar matritsasi va dastur asosida tekshiruv ko'lamini aniq belgilaydi. Shunday qilib, xatarga yo'naltirilgan metodika turli resurs imkoniyatidagi korxonalar uchun birdek tatbiq etiluvchan bo'lib qoladi.

Metodikani joriy etishni bosqichma-bosqich, tajriba-sinov yondashuvi asosida amalga oshirish maqsadga muvofiq. Dastlab bitta yuqori xatarli yo'nalishda — odatda tovar-moddiy zaxiralar auditida — metodikaning to'liq sikli sinovdan o'tkaziladi: xatarlar baholanadi, audit dasturi moslashtiriladi, tekshiruv amalga oshiriladi va natijalar tahlil qilinadi. Tajriba-sinov bosqichi yakunlari asosida protseduralar va indikatorlar aniqlashtirilib, metodika boshqa yo'nalishlarga kengaytiriladi. Bunday yondashuv joriy etish bilan bog'liq xatarlarni kamaytiradi, xodimlarning yangi ish uslubiga moslashuvini yengillashtiradi hamda metodikaning korxona sharoitlariga moslashtirilishini ta'minlaydi. Bosqichma-bosqich joriy etish yondashuvi metodikani to'liq qo'llashga nisbatan yanada barqaror natijalarga erishish imkonini beradi.

Natijalarning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat: birinchidan, xatarga yo'naltirilgan ichki auditning tarqoq elementlari birinchi marta yengil sanoat uchun yaxlit, olti bosqichli siklik metodika ko'rinishida tizimlashtirildi; ikkinchidan, tovar-moddiy zaxiralar va tannarx auditining tarmoqqa xos protseduralari namunaviy dastur shaklida rasmiylashtirildi; uchinchidan, tarmoq xususiyatlariga mos kalit xatar indikatorlari tizimi taklif etildi. Muhokama nuqtayi nazaridan metodika Griffiths yondashuvini bosqichlar to'liq sikli bilan kengaytiradi (Griffiths, 2005), milliy standartlarning umumiy talablarini tarmoq darajasida konkretlashtiradi (O'zR Moliya vazirligi, 2022) va texnologik vositalar bilan to'ldirilishga ochiq (Vasarhelyi va boshq., 2004). Metodikaning chegarasi — uning samaradorligi xatar baholari sifatiga bog'liqligi; bu baholashga tuzilgan yondashuv va mustaqil auditorlik mulohazasi orqali yumshatiladi.

Metodikaning xalqaro talablarga muvofiqligini alohida qayd etish lozim. Global ichki audit standartlari audit rejasining xatarlar bahosiga asoslanishini, metodologiyani hujjatlashtirilishini va natijalar monitoringini talab qiladi — taklif etilayotgan olti bosqichli sikl ushbu talablarning har biriga mos tuzilmaviy javob beradi (The IIA, 2024). COSO modeli bilan muvofiqlik xatarlarni identifikatsiyalash va baholash bosqichlarining uning komponentlariga tayanishi orqali ta'minlanadi (COSO, 2017). Shu bilan birga, metodika milliy hisob muhitiga bog'langan: protseduralar milliy hisob shakllari va me'yoriy talablar tilida ifodalangan, bu uni bevosita, qo'shimcha «tarjimasiz» qo'llash imkonini beradi — xalqaro standartlar bilan milliy amaliyot o'rtasidagi aynan shu ko'priq metodikaning amaliy qiymatini belgilaydi.

Metodikaning iqtisodiy samarasi mantig'i ham muhokamaga loyiq. Xatarga yo'naltirilgan yondashuvda audit resurslari yuqori iqtisodiy ta'sirga ega xatar zonalariga yo'naltirilgani bois, har bir auditor-soatning kutilayotgan samarasi oshadi; profilaktik aniqlash esa yo'qotishni sodir bo'lgandan keyin qoplashga nisbatan arzonroqdir. Material sig'imi yuqori yengil sanoatda hatto material yo'qotishlarining kichik foizga kamayishi ham tannarxda sezilarli tejamga aylanadi. Shu bois metodikani joriy etish xarajatlari — o'qitish, hujjatlarni ishlab chiqish, dastlabki tahlil — oldi olingan yo'qotishlar hisobiga qoplanishi kutiladi; aniq nisbatni kelgusi empirik aprotatsiya ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijasida yengil sanoat korxonalari uchun xatarga yo'naltirilgan ichki audit metodikasi ishlab chiqildi. Metodika olti bosqichli siklik tuzilishga ega bo'lib, tarmoq xatarlarining to'rt guruhli tasnifi, ehtimollik—

ta'sir matritsasi, xatarga asoslangan rejalashtirish, tovar-moddiy zaxiralar va tannarx auditining namunaviy dasturi, kalit xatar indikatorlari tizimi hamda monitoring konturini yaxlit birlashtiradi. Ikki darajali modulli tuzilish metodikani kichik tarmoqlar va korxona ko'lamiga moslashtirish imkonini beradi.

Amaliy takliflar: yengil sanoat korxonalarida ichki audit nizomlariga metodikaning olti bosqichli siklini kiritish; TMZ va tannarx auditini namunaviy dastur asosida o'tkazishni joriy etish; korxonaning tarixiy ma'lumotlari asosida KRI baza qiymatlari va signal chegaralarini belgilash; tarmoq birlashmalari doirasida metodikani uslubiy qo'llanma sifatida tarqatish. Kelgusi tadqiqot yo'nalishi — metodikaning korxonalar tanlanmasida empirik aprobatsiyasi va samaradorligini baholash hamda raqamli vositalar bilan integratsiyalash.

Natijalarning ahamiyati amaliyot bilan cheklanmaydi. Me'yoriy-uslubiy darajada metodika tijorat korxonalari uchun ichki audit bo'yicha tavsiyaviy hujjatlarni ishlab chiqishda asos bo'la oladi; ta'lim darajasida esa «Ichki audit» va «Amaliy audit» fanlarida xatarga yo'naltirilgan yondashuvni tarmoq misolida o'qitish imkonini beradi — talabalar mavhum tamoyillar o'rniga aniq bosqichlar, protseduralar va indikatorlar bilan ishlashni o'rganadi. Shu tariqa taklif etilgan metodika amaliyot, tartibga solish va ta'lim yo'nalishlarini bog'lovchi ko'p funksiyali natija sifatida xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Axmedjanov K.B. Xo'jalik yurituvchi subyektlarda ichki audit metodologiyasini takomillashtirish: iqtisodiyot fanlari doktori dissertatsiyasi avtoreferati. — Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi, 2016. — 76 b.
2. Друри К. Управленческий и производственный учет: вводный курс / пер. с англ. В.Н. Егорова. — 5-е изд., перераб. и доп. — Москва: ЮНИТИ-ДАНА, 2012. — 719 с.
3. Илхомов Ш.И. Xo'jalik yurituvchi subyektlarda ichki audit va uning samaradorligini baholash xususiyatlari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. — 2019. — №1. — B. 1–9.
4. Raxmonov N.R. Tovar-moddiy zaxiralar hisobi va auditini takomillashtirish: iqtisodiyot fanlari nomzodi dissertatsiyasi avtoreferati. — Toshkent, 2010. — 24 b.
5. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2022-yil 3-oktabrdagi 52-son buyrug'i. Ichki audit milliy standartlarini tasdiqlash to'g'risida. — Toshkent, 2022. <https://lex.uz/uz/docs/-6251620>
6. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining buyrug'i. Ichki audit tadbirlarini o'tkazish qo'llanmasini tasdiqlash to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2022-yil 27-dekabrda 3406-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan. — Toshkent, 2022. <https://lex.uz/docs/6329874>
7. Xajimuratov N.Sh. Moliyaviy hisobot audit metodologiyasini takomillashtirish: iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. — Toshkent, 2021.
8. Moeller R.R. Brink's Modern Internal Auditing: A Common Body of Knowledge. — 8th ed. — Hoboken, NJ: John Wiley & Sons, 2016. — 784 p.
9. Committee of Sponsoring Organizations of the Treadway Commission (COSO). Enterprise Risk Management: Integrating with Strategy and Performance. — Durham, NC: COSO, 2017. — 252 p.
10. Griffiths P. Risk-Based Auditing. — Aldershot: Gower Publishing, 2005. — 232 p.
11. Pickett K.H.S. The Internal Auditing Handbook. — 3rd ed. — Chichester: John Wiley & Sons, 2010. — 816 p.
12. Reding K.F., Sobel P.J., Anderson U.L., Head M.J., Ramamoorti S., Salamasick M., Riddle C. Internal Auditing: Assurance & Advisory Services. — 3rd ed. — Altamonte Springs, FL: The Institute of Internal Auditors Research Foundation, 2013. — 688 p.
13. Sawyer L.B., Dittenhofer M.A., Scheiner J.H. Sawyer's Internal Auditing: The Practice of Modern Internal Auditing. — 5th ed. — Altamonte Springs, FL: The Institute of Internal Auditors, 2003. — 1792 p.
14. The Institute of Internal Auditors. GTAG 16: Data Analysis Technologies. — Altamonte Springs, FL: The Institute of Internal Auditors, 2011.
15. The Institute of Internal Auditors. Global Internal Audit Standards. — Lake Mary, FL: The Institute of Internal Auditors, 2024.
16. Vasarhelyi M.A., Alles M., Kogan A. Principles of analytic monitoring for continuous assurance // Journal of Emerging Technologies in Accounting. — 2004. — Vol. 1, No. 1. — P. 1–21. — DOI: 10.2308/jeta.2004.1.1.1.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100